MUZEYLARDAGI EKSPONATLARNI SAQLASHDA JAHON TAJRIBASI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Mutalibjon Xasanov

FarDU, O'zbekiston-Xitoy qo'shma kafedrasi

Saidov Sobidjon Sidiqjon o'g'li

FarDU, Muzey menejmenti va madaniy turizm yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Email: sobidjonsaidov894@gmail.com

doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20545018

Annotatsiya: Ushbu maqolada muzey fondlarida eksponatlarni saqlash, ularning xavfsizligini ta'minlash va konservatsiya qilish bo'yicha ilg'or jahon tajribasi tahlil qilinadi. Dunyoning yetakchi muzeylarida qo'llanilayotgan iqlim nazorati (climat-control) tizimlari, raqamli monitoring, restavratsiyaning zamonaviy usullari va biologik zararkunandalarga qarshi kurashish texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlari O'zbekiston muzeylari faoliyatini takomillashtirish nuqtai nazaridan yoritilgan.

Kalit so'zlar: muzey fondi, eksponat, konservatsiya, jahon tajribasi, iqlim nazorati, restavratsiya, raqamli monitoring, xavfsizlik.

Abstract: This article analyzes the advanced international experience in preserving, ensuring the safety, and conserving museum collections. The features of climate-control systems, digital monitoring, modern methods of restoration, and technologies for combating biological pests used in the world's leading museums are highlighted from the perspective of improving the activities of museums in Uzbekistan.

Keywords: museum collection, exhibit, conservation, world experience, climate control, restoration, digital monitoring, security.

Аннотация: В данной статье анализируется передовой мировой опыт хранения, обеспечения безопасности и консервации музейных фондов. Особенности систем климат-контроля, цифрового мониторинга, современных методов реставрации и технологий борьбы с биологическими вредителями, используемых в ведущих музеях мира, освещены с точки зрения совершенствования деятельности музеев Узбекистана.

Ключевые слова: музейный фонд, экспонат, консервация, мировой опыт, климат-контроль, реставрация, цифровой мониторинг, безопасность.

Kirish

Muzey ashyolari va kolleksiyalari insoniyat sivilizatsiyasi, madaniyati va tarixining moddiy guvohi bo'lib, ularni kelajak avlodga asl holatida yetkazish muzeyshunoslik sohasining eng ustuvor vazifasidir. Biroq, vaqt o'tishi bilan turli tashqi omillar — harorat va namlikning keskin o'zgarishi, yorug'lik nurlari, chang hamda biologik zararkunandalar eksponatlarning emirilishiga va tarkibiy buzilishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasining "Muzeylar to'g'risida"gi Qonunida muzey ashyolarini saqlash sharoitlarini ta'minlash va ularni davlat tomonidan muhofaza qilish qat'iy belgilab qo'yilgan [1].

Bugungi kunda dunyoning yetakchi muzeylari (Luvr, Britaniya muzeyi, Ermitaj va boshqalar) eksponatlarni saqlashda shunchaki an'anaviy usullar bilan cheklanmasdan, kimyo, fizika va raqamli texnologiyalar uyg'unligidagi eng so'nggi innovatsiyalardan keng foydalanmoqdalar. O'zbekiston

muzeylarida ham fond saqlash tizimini modernizatsiya qilish, eksponatlarning umrini uzaytirish va xalqaro standartlarni joriy etish uchun jahon tajribasini chuqur o‘rganish va tahlil qilish o‘ta dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Asosiy Qism

Jahon amaliyotida muzey eksponatlarini saqlash va ularning xavfsizligini ta’minlash asosan ikki yo‘nalishda: preventiv (oldini oluvchi) konservatsiya va faol restavratsiya texnologiyalari orqali amalga oshiriladi.

1. Mikroiqlim nazorati va raqamli monitoring tizimi

Eksponatlarning (ayniqsa qog‘oz, mato, yog‘och va charm kabi organik ashyolarning) uzoq muddat saqlanishida muzey binosi hamda vitrinalar ichidagi harorat va nisbiy namlik darajasi hal qiluvchi rol o‘ynaydi [2].

Bizning fikrimizcha, mahalliy muzeylarimiz fondlarida ham harorat va namlik ko‘rsatuvchi datchiklar har soatda markaziy kompyuterga yo‘llaydigan mana shunday aqlli datchiklarni o‘rnatish lozim. Bu ayniqsa keskin quruq iqlimga ega bo‘lgan mintaqamizda qadimiy qo‘lyozmalar va arxeologik topilmalarni asrab qolishda qonuniy va ilmiy yechimdir

2. Eksponatlarni restavratsiya va konservatsiya qilishda xalqaro standartlar

Xalqaro muzeylar kengashi (ICOM) tavsiyalariga ko‘ra, restavratsiya jarayonida ashyoning asl qiyofasi va tarixiy qimmatiga mutlaqo zarar yetkazmaslik, aslichalik (authenticity) tamoyillariga rioya qilish shart [2]. Masalan, G‘arb tajribasida qadimiy metall va ashyolarni tozalashda mexanik yoki agressiv kimyoviy usullardan ko‘ra, lazerli tozalash (laser cleaning) kabi nanotexnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Bu usul ashyoning qadimiy qatlamiga shikast yetkazmasdan, faqat yuzadagi zang va kirlarni yo‘qotadi [3].

Muzey fondlaridagi osori-atiqalarni saqlash sifati bevosita shu sohadagi kadrlar salohiyati va texnik bazaning zamonaviyligiga bog‘liq.

Bizning fikrimizcha, muzeylarimiz qoshida zamonaviy kimyoviy-biologik laboratoriyalarni tashkil etish davr talabidir. Biz shunchaki eksponatni vitrinaga qo‘yish bilan cheklanmasdan, uning saqlanish xavfsizligini ilmiy nazorat qilishimiz shart. Shuningdek, universitetlarimizdagi muzeyshunoslik yo‘nalishi yosh kadrlarini xorijiy yetakchi restavratsiya markazlariga (masalan, Germaniya, Yaponiya yoki Xitoy tajribasi asosida) qisqa muddatli malaka oshirish kurslariga yuborish tizimini kuchaytirish lozim. Albatta, bu talabalarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshiradi. Bu orqali muzey fondlarini saqlash bo‘yicha milliy maktabimizni jahon standartlari darajasiga ko‘tara olamiz.

Xulosa

Muzey eksponatlarini asrash bo‘yicha jahon tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy muzeyshunoslik faqatgina tarixiy ashyolarni namoyish etish emas, balki yuqori texnologik va fundamental ilmiy jarayondir. O‘zbekiston muzeylarida eksponatlarni saqlash tizimini jahon andozalariga moslashtirish uchun quyidagi fikir takliflarning, amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi.

Fond binosi va vitrinalarni raqamlashtirish: Respublikamizdagi barcha yirik muzeylar fondlarida mikroiqlimni avtomatik boshqaruvchi "Aqlli muzey fondi" (Smart Storage) tizimini pilot loyiha sifatida joriy etish;

"Milliylik va xalqaro tajriba" integratsiyasi: Mahalliy restavratorlarimiz tajribasini ICOM xalqaro qo‘llanmalari va qoidalari bilan boyitish, muzey xodimlarining konservatsiya yo‘nalishidagi uslubiy bilimlarini muntazam yangilab borish [2];

Muzey laboratoriyalarini modernizatsiya qilish: Hududiy muzeylar qoshida eksponatlarni biologik zararkunandalardan (mog‘or, hasharotlar) asrovchi, ekologik toza va xavfsiz bo‘lgan anoksik (kislorodsiz gaz muhiti) kameralarni o‘rnatish orqali zararlar xavfini bartaraf qilish mumkin.

Ushbu takliflarning tizimli amalga oshirilishi xalqimizning bebaho madaniy merosini kelajak avlodlar uchun zarracha shikast yetkazmasdan, uzoq asrlar davomida saqlab qoliga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining "Muzeylar to‘g‘risida"gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2008.
2. ICOM. Muzeylar va barqaror saqlash xalqaro yo‘riqnomasi. – Parij, 2019.
3. To‘xliyev N., Abdullayeva T. Madaniy meros obidalari va muzeyshunoslik asoslari. – Toshkent, 2014. – B. 142-150.